

## VORISLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Abduvaliyev Murodillo Marufjon o'g'li

Fargona Davlat Universiteti

Huquqshunoslik fakulteti umumnazariy huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20383649>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fuqarolik huquqiy munosabati hisoblangan vorislik huquqi atroflicha o'rganilgan bo'lib, ushbu institutdagi qonun bo'yicha vorislik hamda vasiyat tushunchalari o'rtasidagi farq tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** vorislik, qonun bo'yicha vorislik, meros, vasiyat, vasiyatnoma, merosxo'r.

**Аннотация.** В данной статье подробно исследуется право наследственности, являющееся гражданским правоотношением, а также анализируется различие понятий наследственности и завещания в этом институте.

**Ключевые слова:** наследование, правопреемство, наследование, завещание, наследник.

**Annotation.** In this article, the right of succession, which is a civil legal relationship, is studied in detail, and the difference between the concepts of succession and testament in this institution is analyzed.

**Key words:** succession, legal succession, inheritance, testament, will, heir.

**Kirish:**

Huquqiy munosabatlar ichida fuqarolik huquq sohasi o'z ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarni alohida tartibga solishi jihatdan ajralib turadi. Bunga misol tariqasida shaxsning vafoti o'zga shaxslar yoki o'ziga tegishli obyektlarga nisbatan huquq va majburiyatlarining saqlanib qolinishidir. Hayotda har bir shaxs boshqa bir shaxslar bilan har xil munosabatlarda bo'ladi. Bu munosabatlar, albatta, shaxsning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Vaqt o'tishi bilan bir munosabat bekor bo'ladi, ikkinchi bir munosabat vujudga keladi. Munosabatning barchasi shaxsiy yoki mulkiy munosabatlar bo'lib, ma'lum bir qoidalar bilan tartibga solinadi.

Munosabatda turgan har bir shaxs muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgandan so'ng ham o'z kuchini saqlab qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiyatlarining bekor bo'lishiga olib kelmaydi. Masalan, kredit muassasalariga qo'yilgan mablag', uni qo'ygan shaxs vafot etganda ham bank omonatni berish majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Majburiyat davom etadi, ammo talab qilish huquqi boshqa shaxslarga o'tadi.

Umuman olganda, vorislik deb – shaxsning vafotidan keyin unga xususiy mulk asosda tegishli bo'lgan mol-mulkning, shuningdek meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ba'zi huquq va majburiyatlarining merosxo'rlarga o'tishi tushuniladi<sup>1</sup>.

Vorislik vasiyat (vasiyatnoma) va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar kiradi. Ammo meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar, xususan yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqi, pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar olish huquqi, mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi.

<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharxlar. Toshkent, 1998 y. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 111 jild. 238-bet.

Har bir shaxs o'z mulkining vafot etganidan so'ngi taqdirini oldindan, hayotligida belgilab qo'yishi mumkin. Demak, meros deganda, vafot etgan shaxsning mol-mulki, mulkka bo'lgan huquqi, boshqalardan talab qilish huquqi, boshqalar oldidagi majburiyatlari va qarzlarini tushunish kerak.

Shunday qilib, meros - bu fuqarolarning hayotligida boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lgan uning huquq va majburiyatlari yig'indisidan iboratdir.

#### **Muhokama va natija:**

Vorislik so'zining o'zagi arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, "virostatun" yani, ma'naviy yoki moliyaviy huquq va majburiyatga ega bo'lish demakdir. Yana shuni takidlash joizki meros va vorislik so'zlari bir o'zak (virostatun)dan kelib chiqqan.

M.Abdusalomovning ushbu tushunchaga bergan tarifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, meros huquqi - bu fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarining bevosita qabul qilib olishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir. Meros huquqi fuqarolarning mulkiy huquqlari va manfaatlarini qo'riqlash bilan bog'langan bo'lib, ularning o'z mulkiga nisbatan tasarruf etish huquqini hech qanday to'siqsiz, nafaqat hayotligida, balki, vafot etgandan so'ng ham amalga oshirilishini ta'minlaydi<sup>2</sup>.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi. Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

**Qonun bo'yicha vorislik** haqida so'z borar ekan, vafot etgan shaxsга xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquq hamda majburiyatlaming qonunda belgilab qo'yilgan shaxslarga o'tishi qonun bo'yicha vorislik hisoblanadi.

Meros qoldiruvchi o'zining xususiy mulkining o'zi vafot etgandan keyingi taqdirini o'zi hayotlik vaqtida belgilab qo'yish huquqiga ega. Ammo qonun bilan bir qator shartlar belgilanganki, bunga asosan meros qoldiruvchi ulami o'zgartirish huquqiga ega emas. Qonunda maxsus belgilab qo'yilgan ayrim kategoriya merosxo'rlarning merosga bo'lgan huquqlarini qonun himoya qiladi. Meros qoldiruvchi bunday merosxo'rlarning qonunda belgilangan meros ulushlarini kamaytirishga yoki ularni umuman meros olishdan mahrum qilishga haqli emas<sup>3</sup>.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasiga asosan xotin-qizlar va erkaklar meros olishda ham teng huquqdan foydalanadilar. Qonun bo'yicha merosxo'rlar, FKning 1135-1139-moddasida nazarda tutilgan tartibga asosan, besh navbatda vorislikka chaqiriladilar. Bundan tashqari FKning 1140-m oddasiga asosan meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari sifatida vorislikka chaqirilishlari mumkin.

Qonun bo'yicha merosxo'rlaming har bir navbati awalgi navbatdagi merosxo'rlar a) bo'lmagan taqdirda; b) merosxo'rlaming hammasi merosdan chetlashtirilganda; v) barcha vorislar merosni qabul qilib olmagan; yoki undan voz kechganda vorislik huquqini qo'lga kiritadi. Bir navbat doirasida qonun bo'yicha vorislikka chaqirilgan merosxo'rlar o'rtasida meros mulk teng hissada taqsimlanadi.

<sup>2</sup> M.Abdusalomov. Fuqarolik huquqi -. Toshkent: Adolat. 2007. 338-bet

<sup>3</sup> O'zbekiston fuqarolik kodeks III-qismga sharhlar -T.: 1998-y III-jild 265-bet.

Voyaga etmagan bolalar o'zlarining ota-onalari bilan birga yashaganda vafot etgan taqdirda ulardan meros qolgan mol-mulk, agar qonunda belgilangan tartibda vasiyat qilingan bo'lsa, ota-onalarga o'tadi.

Qonun bo'yicha vorislikka faqat meros qoldiruvchi vafot etgan paytda hayot bo'lgan shaxslargina chaqiriladilar. Qonun bo'yicha merosxo'r meros ochilgandan keyin uni qabul qilib olmasdan vafot etgan taqdirda, uning ulushi taqdim qilish huquqi bo'yicha uning merosxo'rlariga o'tadi. Qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasini aniqlash uning meros qoldiruvchiga nisbatan qarindoshlik darajasini belgilash O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

FKning 1120-moddasida "Fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulki yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e'tirof etiladi". Yuridik adabiyotlarda vasiyat tushunchasi huquqshunos olimlar tomonidan har xil ta'riflanadi.

F.Sayfullaevning bergan ta'rifi bo'yicha vasiyat deb, meros qoldiruvchining o'zi vafot etgandan keyin mulkining barchasini yoki bir qismini qonun bilan belgilangan tartibda vorislarning yoki vorislari bo'lib hisoblanmagan shaxslarning biri yoki bir nechtasiga, davlatga yoki davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar yoki muassasalarga qoldirish haqidagi bergan yozma buyrug'iga aytiladi<sup>4</sup>.

Bundan tashqari M.U. Barshevskiy quyidagi fikrni ilgari suradi — bu meros qoldiruvchi vafotidan so'ng huquqni olish tartibini belgilovchi shaxsiy-rasmiy xarakterga ega bo'lgan bir tomonlama bitim hisoblanadi<sup>5</sup>.

FKning 1120-moddasiga binoan fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e'tirof qilinadi.

Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin<sup>6</sup>.

Vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha merosxo'rlardan bittasini, bir nechasini yoki hammasini izoh bermagan holda merosdan mahrum qilishga haqli. Qonun bo'yicha merosxo'rni merosdan mahrum etish, agar vasiyatnomadan boshqa hol kelib chiqmasa, bu vasiyat qiluvchining taqdim etish huquqi bo'yicha vorislik qiladigan avlodlariga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>7</sup>.

Meros qoldiruvchi har qanday mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli.

Meros qoldiruvchi vasiyat qilayotgan paytida o'ziga tegishli bo'lmagan mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Agar meros ochilgan paytga kelib, bunday mol-mulk unga tegishli bo'lib qolsa, tegishli farmoyish haqiqiy hisoblanadi.

Bundan tashqari FKda vasiyatnomaning shakliga doir umumiy qoidalar batafsil bayon etilgan bo'lib, bular quyidagilardir:

<sup>4</sup> F. Sayfullaev. O'zbekiston SSR Grajdanklik huquqi. I tom. Toshkent, "o'qituvchi" 1988 - 264- b.

<sup>5</sup> М.Ю. Баршевский. Правовое регулирование наследования по завещанию. Москва. 1989.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. Toshkent, 1998 y. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 111 jild. 238-bet.

<sup>7</sup> Fuqarolik Kodeksi: 1120-modda. 29.08.1996

Vasiyatnoma yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim.

Quyidagi vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi:

notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar;

notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi lozim.

Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan notarius yoki qonunga muvofiq vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo'lganida vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmaganligining sabablari ko'rsatilgan holda vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin.

Quyidagilar vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolashi mumkin emas:

notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa shaxs;

vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo'lsa, o'sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek vasiyat qiluvchining qonun bo'yicha merosxo'rlari;

to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar;

savodsizlar va vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar;

yolg'on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar.

#### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, meros mulk faqat qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha vorislik asosida merosxo'rlarga o'tishi haqida batafsil o'rganildi. Qonun bo'yicha vorislikda yana vorislikka chaqirish navbatlari, meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik, shuningdek, vasiyat bo'yicha vorislikda esa vasiyatnoma va uni tuzish o'zgartirish, bekor qilish asoslari hamda uning haqiqiy emas deb topilishi kabi jihatlari atroflicha o'rganilishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. M.Abdusalomov. Fuqarolik huquqi - Toshkent: Adolat. 2007.
2. O'zbekiston fuqarolik kodeksi II-kismga sharxlar T. 1998 y SH-jild 265-bet.
3. F. Sayfullayev. O'zbekiston SSR Grajdanklik huquqi. I tom. Toshkent, "o'qituvchi"1988 - 264- bet.
4. М.Ю. Баршевский. Правовое регулирование наследования по завещанию. Москва. 1989.
5. O'zbekistan Respublikasi Fukarolik kodeksining ikkinchi kismiga sharxlar. Toshkent, 1998 y. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 111 jild. 238-bet.
6. Fuqarolik Kodeksi: 1120-modda. 29.08.1996.